

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.T.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ESANALIYEVA NILUFARXON RAXMONJON QIZI

**MAVSUMIY KESIK KONUS SIRTGA EGA QUYOSH SUV
ISITGICHLARINI ISHLAB CHIQISH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

UO'K662.997 ÷ 621.47

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of philosophy doctor (PhD)
on technical sciences**

Esanaliyeva Nilufarxon Rahmonjon qizi

Mavsumiy kesik konus sirtga ega quyosh suv isitgichlarini ishlab
chiqish.....

3

Эсаналиева Нилуфархан Рахмонджон кизи

Разработка солнечных водонагревателей сезонного использования с
поверхностью в форме усеченного конуса
.....

23

Esanaliyeva Nilufarkhon Rakhmonjon kizi

Development of solar water heaters with a seasonal truncated-cone
surface.....

43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

47

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.T.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ESANALIYEVA NILUFARXON RAXMONJON QIZI

**MAVSUMIY KESIK KONUS SIRTGA EGA QUYOSH SUV
ISITGICHLARINI ISHLAB CHIQISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.1.PhD/T603 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ferpi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashev Sirojiddin Fayazovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Mamadaliyeva Lola Kamildjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Qosimov Faxriddin Shodmonqulovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.T.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil **"22" avgust soat 9"** dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150100, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+99873) 241-12-06, faks (+99873) 241-12-06, e-mail: ilmiy-kengash@ferpi.uz, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (**№ 340** raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Farg'ona davlat texnika universiteti. Tel: (+99873) 241-12-06.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil **"6" avgust** kuni tarqatildi.
(2026 yil **"3" 08** dagi № 3 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.R.Salomov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., prof.

A.A.Quchqorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, dotsent

N.R.Avezova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d, kat.i.x.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamlarini kengaytirish, uglevodorodli yoqilg‘i-energetik resurslarni tejash hamda uskunalarning energetik samaradorligini aniqlash asosida energiya tejash zahiralarini baholash va ulardan oqilona foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda¹. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda «...qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiya ishlab chiqarish yillik o‘rtacha 7 % ga o‘sib bormoqda, bunda quyosh energetikasining ulushi jadal ortib bormoqda². 2030 yilga kelib “Net Zero Emission” ssenariysida energiya ishlab chiqarishning asosiy qismi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to‘g‘ri kelishi prognoz qilinmoqda»³. Bu borada, jumladan kesik konus shaklidagi sig‘imli quyosh suv isitgichlarining optimal konstruksiyalarini ishlab chiqish, tabiiy konveksiya sharoitida bak ichidagi issiqlik almashinuv jarayonlarini tadqiq qilish, harorat qatlamlanishini aniqlash, energiya yig‘ish samaradorligini baholash hamda matematik modellashtirish asosida energiya samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda quyoshli issiq suv ta‘minoti tizimlarining energiya samaradorligini oshirish, xususan issiqlik akkumulatori sifatida qo‘llaniluvchi kesik konus shaklidagi sig‘imli quyosh suv isitgichlarining ish rejimlarini optimallashtirish, tabiiy va majburiy konveksiya sharoitida bak ichidagi issiqlik almashinuv jarayonlarini aniqlash hamda konstruksiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, sig‘im ichida harorat qatlamlanishini yaxshilash, issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirish, suv hajmi bo‘ylab energiya taqsimotini barqarorlashtirish va ichki oqimlarni samarali boshqarish orqali kesik konus shaklidagi sig‘imli quyosh suv isitgichlarining energetik samaradorligini oshirish hamda ularning asosiy geometrik va issiqlik-gidravlik parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, bak ichida suvning tabiiy sirkulyatsion harakati modeli, harorat maydonining balandlik bo‘ylab taqsimlanish qonuniyatlari, issiqlik akkumulyatsiyalash samaradorligini hisoblash usuli hamda issiqlikni saqlash va uzatish jarayonlarining energetik ko‘rsatkichlarini aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish va samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2023-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish, uning asosi sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni tubdan oshirish” maqsadini amalga oshirishda “... - qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 GVt ga va umumiy istemoldagi

¹ REN21. Renewables 2024 Global Status Report. Paris, France, 2024.

² BP Statistical Review of World Energy 2024. London, 2024.

³ International Energy Agency (IEA). Net Zero Roadmap: A Global Pathway to Keep the 1.5 °C Goal in Reach. Paris, 2023.

ulushini dastlab 40% ga yetkazish; yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlarini ularning 2010-yildagi darajasiga nisbatan 30% ga kamaytirish", shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida⁴, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish» bo'yicha vazifalari belgilangan⁵. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya tejamkor issiqlik ta'minoti tizimlarini yaratish va mavjud qurilmalarni modernizatsiya qilish, jumladan kesik konus shaklidagi sig'imli quyosh suv isitgichlarida issiqlik almashinuv jarayonlarini tabiiy konveksiya sharoitida tahlil qilish, harorat qatlamlanishi va energiya yig'ish samaradorligini aniqlash hamda ularni matematik modellashirish orqali yuqori samarali issiq suv ta'minoti tizimlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV- "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg'or texnologiyalar va qurilmalarni yaratish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Quyosh issiqlik tizimlari va sig'imli quyosh suv isitgichlarining energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar jahon miqyosida jadal rivojlanmoqda. Quyosh issiqlik qurilmalarining konstruktiv shakllarini takomillashtirish, issiqlik akkumulyatsiyalash jarayonlarini kuchaytirish, geometrik parametrlarni optimallashtirish hamda tabiiy konveksiya jarayonlarini tahlil qilish bo'yicha bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar. Jumladan, J.A. Duffie, W.A. Beckman, S.A. Kalogirou, L. Fraas, T. Tabor, Y. Tripanagnostopoulos, A. Sharma, L.F. Cabeza, J.K. Tonui, F. Chabane, Noureddine Moumni va boshqalarning ilmiy ishlarida quyosh suv isitgichlari, integrallashgan bakli tizimlar, fazaviy o'zgaruvchan materiallar (PCM) bilan jihozlangan issiqlik akkumulatorlari hamda konussimon va silindrik sig'imli

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PF-155-son Farmoni.

baklarning issiqlik samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy va tajribaviy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, kesik konus shaklidagi sig'imli baklarda harorat qatlamlanishi, yoritilish burchagining o'zgarishi va energiya yig'ish samaradorligini oshirish bilan bog'liq bir qator ilmiy natijalarga erishilgan.

Quyosh issiq suv tayyorlash tizimlarining issiqlik va energetik samaradorligini hisoblash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga O'zbekistonning taniqli olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Jumladan, Umarov G.Ya., Zaxidov R.A., Avezov R.R., Avezova N.R., Ergashev S.F., Xayriddinov B.E., Risaxo'jaev B.S., Rashidov Yu., Qosimov F. va boshqalar tomonidan quyosh energiyasidan issiq suv olish texnologiyalari, tabiiy konveksiya jarayonlari, energiya tejankor suv isitgich qurilmalari va mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirilgan quyosh issiqlik tizimlari bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyosh suv isitgichlarining energetik samaradorligini oshirish, issiqlik yo'qotishlarini kamaytirish va kichik energetika amaliyotida qo'llash bo'yicha salmoqli natijalarga erishilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarga qaramasdan, kesik konus shaklidagi sig'imli quyosh suv isitgichlarini mahalliy xom-ashyo va materiallar asosida yaratish, ularning konstruktiv yechimlarini takomillashtirish, bak ichidagi tabiiy konveksiya va harorat qatlamlanishi jarayonlarini zamonaviy injenerlik dasturlari asosida tahlil qilish hamda energetik va geometrik parametrlarini optimallashtirish bo'yicha kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish talab etilmoqda.

Dissertatsiya ishining oliy ta'lim dasturlari bilan yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlarining rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FL-8824063386- "Issiqlik nasoslari va qayta tiklanadigan energiya texnologiyalaridan foydalangan holda isitish va sovitish ta'minot tizimlari uchun gibrid energiya tizimlarini loyihalash va yaratish ning ilmiy asoslarini rivojlantirish" (2025-2026) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi kesik konussimon sirtga ega sig'imli va spiral quvurli quyosh suv isitgichlarini ishlab chiqish va asosiy energetik ko'rsatgichlarni tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari:

quyosh suv isitish tizimlaridan foydalanish bo'yicha zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, afzalliklari va cheklovlarini aniqlash;

kesik konus quyosh suv isitgich kollektorlarida va ulardagi issiqlik almashinuv jarayonlarni o'rganish;

kesik konus quyosh suv isitgich kollektorlari issiqlik almashinuv jarayonlarini Comsol muhitida sonli modelashtirish;

kesik konus quyosh suv isitgichlarining eksperimental tadqiqotlar asosida issiqlik samaradorligini tadqiq qilish;

Tadqiqotning obyekti mavsumiy kesik konus sirtga ega sig'imli quyosh suv isitgich kollektori va va uning issiqlik-texnik parametrlari olingan.

Tadqiqotning predmeti mavsumiy kesik konus sirtga ega bo'lgan sig'imli quyosh suv isitgichlarida kechadigan issiqlik almashinuv jarayonlari, ularning konstruktiv-geometrik xususiyatlari, suvning tabiiy konveksiya asosidagi aylanishi,

kollektor absorberining issiqlik uzatish qobiliyati hamda qurilmaning umumiy energetik samaradorligini belgilovchi fizik–texnik jarayonlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida issiqlikni uzatish va issiqlik almashinuvining tenglamalari, chegaraviy qatlam nazariyasi, issiqlik uzatish quvurlaridagi asosiy issiqlik-texnikaviy va gidravlik parametrlarni aniqlashda analitik va hisobiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

yuzasi 1 m² bo‘lgan va sutkasiga 110 litrgacha issiq suv olish imkonini beruvchi, sig‘imli kesik konussimon sirtga ega mavsumiy foydalanishga mo‘ljallangan quyosh suv isitish kollektorining konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

kesik konussimon absorberning radiuslari va balandligi nisbatlari hamda kollektorning o‘rnatish burchagini yoritilgan sirt maydoni, suv sig‘imi va issiqlik samaradorligi mezonlari bo‘yicha birgalikda baholashga asoslangan ko‘p mezonli geometrik maqbullashtirish usuli ishlab chiqilgan;

sig‘imli kesik konussimon quyosh suv isitgichida ichki yassi va tashqi spiralsimon quvurli deflektorlar hosil qiladigan yo‘naltirilgan tabiiy sirkulyatsiyaning konvektiv issiqlik almashinuvi ko‘rsatkichlariga ta’sirining miqdoriy bog‘liqligi aniqlangan;

kesik konussimon sig‘imli quyosh suv isitgichida o‘tkazilgan sonli va eksperimental tadqiqotlar asosida suv oqimi tezligi $1-1.5 \times 10^{-2}$ m/s bo‘lgan samarali ishlash rejimi aniqlanib, kun davomida 37 °C da 270 litr, 42°C da 150 litr va 55 °C da 110 litrgacha issiq suv olish imkoniyati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kesik konussimon sig‘imli quyosh suv isitgichining konstruksiyasi ichki va tashqi deflektorlar hamda spiral quvurli issiqlik almashinuv tizimini qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

kesik konussimon sig‘imli quyosh suv isitgichida kechadigan tabiiy konveksiya va issiqlik tarqalish jarayonlarini hisobga olgan holda issiqlik almashinuvini hisoblashning matematik modeli va hisoblash tenglamalari ishlab chiqilgan;

qurilmaning geometrik, gidravlik va issiqlik-texnik parametrlarini aniqlash uchun hisoblash usuli va tavsiya etilgan ishlash rejimlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kesik konus deflektorli va quvurli quyosh suv isitgichida sodir bo‘ladigan issiqlik-massa almashinuvi va issiqlik-texnik tavsiflarining o‘zaro bog‘lanishi va muvofiqligi, hisobiy va tajribaviy natijalarning o‘zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kesik konussimon sig‘imli quyosh suv isitgichida kechadigan tabiiy konveksiya, issiqlik tarqalishi va konvektiv issiqlik almashinuv jarayonlarining sonli modellashirilishi hamda deflektorli va spiral quvurli konstruksiyalarning issiqlik samaradorligiga ta’siri aniqlanganligi bilan issiqlik almashinuvi nazariyasi va amaliyoti rivojiga qo‘shgan hissasi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kesik konussimon sig‘imli quyosh suv isitgichining geometrik, issiqlik-texnik va gidravlik ko‘rsatkichlarini aniqlash

usullari ishlab chiqilganligi hamda qurilmaning energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi konstruktiv yechimlar tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mavsumiy kesik konus sirtga ega quyosh suv isitgichlarini ishlab chiqish mavzusi bo'yicha olingan natijalar asosida:

ishlab chiqilgan "Quyosh suv isitgich kollektori" (FAP 10207) ni Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filialiga jamoat binosining issiqlik ta'minoti tizimiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2025-yil 4-sentyabrdagi 04-25-1563-son ma'lumotnomasi). Natijada, tizimda foydalanilayotgan elektr energiya sarfini 25-32 foizgacha tejash imkonini bergan.

konussimon turdagi sig'imli quyosh suv isitgich Rishton tumani "Roshidon Davroni" fermer xo'jaligiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2025-yil 4-sentyabrdagi 04-25-1563-son ma'lumotnomasi). Natijada, an'anaviy hamda noan'anaviy issiqlik ta'minoti tizimlari birgalikda foydalanish orqali uglevodorod yoqilg'i sarfini 55-60 foizgacha kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 5 ta xalqaro konferensiyalarda hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, jumladan, 5 ta respublika va 5 ta chet el jurnallarida nashr etilgan, 1 ta foydali model uchun patent va EHM lar uchun 3 ta dasturiy mahsulotga guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyani hajmi 120 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, qisqacha tahlil va muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi haqidagi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Jahonda va O'zbekistonda quyosh suv isitish tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari va dolzarbligi"** deb nomlangan birinchi bobida yassi quyosh suv isitish kollektorlari(YQSK) va hajmiy quyosh suv isitish kollektorlari(HQSK), nur yutuvchi issiqlik almashinish panellarining mavjud konstruktiv yechimlarining tahlili o'tkazilgan, ularning asosiy issiqlik parametrlari, quyosh nuri(QN) issiqligini (YQSK) shaffof qoplamasi (SHQ) orqali o'tib, qisman yutilishi va issiqlikka aylanish ularning issiqlik yo'qotish va issiqlik samaradorligi koeffitsientiga ta'siri o'rganilgan,shu asosda tadqiqot vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “**Kesik konus quyosh suv isitgich kollektorlarida issiqlik almashinuv jarayonlari**” nomli ikkinchi bobida quyosh suv isitgich kollektorlarining geometrik parametrlari, issiqlik almashinuvi samaradorligini oshirish, issiqlik tashuvchilarning oʻrtacha ishchi haroratlari keltirilgan.

Konussimon absorberli quyosh suv isitgichining geometrik parametrlarini optimallashtirishda uning sirt yuzasini maksimal yoritilishiga erishishiga etibor berildi. Bunga konusning geometrik parametrlari (asos radiusi- R , qopqoq radiusi- r , balandlik- h va burchak- α) optimal tanlash lozim. Har bir parametrning samaradorlikka taʼsiri matematik modellash, grafik tahlil va eksperimental kuzatuvlar asosida baholandi. Kesik konussimon quyosh suv isitgichining asosiy geometrik oʻlchamlari boʻyicha optimallashtirish metodikasi, ularning quyosh nurlanishi bilan yoritilishi, issiqlik almashinuvi va energiya samaradorligiga taʼsiri keng tahlil qilinib samarali geometriya shakllari, materiallar va qurilmadagi spiral quvurlarni joylashtirish sxemasi ishlab chiqildi. Yassi absorberlardan farqli ravishda konussimon shakldagi absorberlar quyosh nurlari oqimini markazga yoʻnaltirish va konveksiya oqimlarini tezlashtirish orqali issiq suv ishlab chiqarishni koʻpaytiradi. Bunday shakllar quyosh nurlanishining sirt boʻylab yanada barqaror taqsimlanishini taʼminlab, yutilish koeffitsiyentining oshishiga olib keladi. Konus shakli va uning ichiga qoyilgan konussimon deflektor yuqoriga torayganligi sababli konvektiv oqimlarni tejankor yoʻnaltirishga yordam beradi.



1-rasm Kesik konussimon ichki va tashqi deflektorli quyosh suv isitgich tashqi koʻrinishi (a) va parametrlarini aniqlash sxemasi (b).

1-kichik asos, 2-mis quvur, 3-katta asos, 4-suv chiquvchi kanal.

Kesik konus shaklidagi kollektorlar quyosh nurlanishini markazga yoʻnaltirish, yutilish yuzasini oshirish va konvektiv harakatni yaxshilash imkonini beradi. Bunday shaklga ega qurilmalarda issiqlik oqimlari yuqoriga koʻtariladi, bu esa issiq suvni tezroq shakllanishiga olib keladi.

Suv issitgich asosiy geometrik koʻrsatkichlarini hisoblashda kesik konusning asosiy formulalaridan foydalanildi.

$$\text{Yon sirt uzunligi}(l): \quad l = \sqrt{(R - r)^2 + h^2} \quad (1)$$


bu formulada R - kesik konus pastki radiusi, r - yuqori radius va h - balandlik.

Quyosh nurlari yutiladigan asosiy sirt yuzasi (A):

$$S = \pi(R + r) \times l \quad (2)$$

$$\text{Suv issitgich hajm}(V): \quad V = \frac{1}{3} \pi h (R^2 + Rr + r^2) \quad (3)$$

Ushbu hajm quyosh suv isitgichining qancha miqdorda suv sig‘dira olishini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu yerda tajriba asosida: $R=500\text{mm}$ -katta radius, $r=200\text{ mm}$ - kichik radius, $h=345\text{mm}$ -balandlik tanlab olindi. Ushbu qiymatlar asosida quyidagilar aniqlanadi: $l=0,427\text{m}$, $S=0,1\text{m}^2$, $V=0,1100\text{m}^3$



2. -rasm. Burchak α ning hajm V ga (a) va spiral quvur radiusi R ning uning uzunligi L ga(b) ta'siri grafigi

Bu grafik, ayniqsa, konussimon kollektor yuzasida spiral mis quvurlarni joylashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mis quvurlar spiral shaklda joylashgani sababli issiqlik almashinuvi uchun qo‘shimcha sirt hosil bo‘ladi. Har bir trubaning uzunligi konus bo‘ylab:

$$L_{quvur} = n \times \sqrt{(2\pi r_n)^2 + p^2} \quad (4)$$

Bu yerda, r_n -har bir spiral aylanish radiusi, p aylanish balandligi, n -spiral aylanishlar soni. Optimal holatda, aylanishlar soni quyosh tushushini to‘smasdan issiqlik uzatishni maksimal qiladi. Eksperimentlar asosida quvur diametri $D=15\text{mm}$ olinganligi optimal natija berganini tasdiqlandi.


Konussimon absorberli kollektorlar konstruktiysida konusning geometrik burchagi, (α)– ya’ni, uning yon devori bilan vertikal o‘q orasidagi α burchak kollektor sirtining qanday yoritilishini va issiqlik yutilish samaradorligini bevosita belgilaydi. Alfa burchak quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\alpha = \arctan\left(\frac{R-r}{h}\right) \quad (5)$$

Quyosh kollektorining eng yuqori samaradorlikda ishlashi uchun konusning geometrik burchagi (α) quyosh nurlari yer yuzasiga tushadigan maksimal burchakdan kam yoki teng bo‘lishi kerak:

$$\alpha \leq \varphi \quad (6)$$

bu yerda: φ -quyosh nuri tushish burchagi (geografik kenglik va kun vaqtiga demak, $\alpha \approx 35^\circ$ bo‘lishi samaradorlikning maksimal shartidir, chunki: quyosh nurlari sirtiga perpendikulyar burchakda tushadi, soya tushishi ehtimoli kamayadi, kollektor yuzasi maksimal yoritiladi.




3-rasm. Burchak α ning samaradorlik η ga ta'siri grafigi.

Konussimon quyosh suv isitgichlarida konvektiv issiqlik almashinuvi tahlil qilindi. Kesik konus quyosh suv isitgichida konvektiv issiqlik almashinuvi жараёнини jadallashtirish maqsadida ichki va tashqi deflektorlar o'rnatilgan bo'lib, suv isitgichda konvektiv issiqlik almashinuvi jarayonida issiqlik berilishini hisoblashda Nyuton qonunidan foydalanildi:

$$Q = \alpha F(t_c - t_{dev}) \quad (7)$$

Ya'ni suyuqlik devorga yoki devordan suyuqlikka o'tadigan issiqlik oqimi Q - issiqlik almashinuvida ishtirok etayotgan sirt F ga va temperatura bosimi $t_c - t_{dev}$ ga proporsional bo'ladi bu yerda t_{dev} -devor sirtini yuvib o'tadigan muhitning temperaturasi. Suyuqlik bilan jism sirti orasidagi issiqlik almashinuvining konkret shart-sharoitlarini hisobga oluvchi proporsionallik koeffitsienti α issiqlik berish koeffitsienti deyiladi. Issiqlik berish koeffitsienti α juda ko'p faktorlarga bog'liq: suyuqlik oqimining vujudga kelish sabablariga; suyuqlikning oqish rejimiga (laminar va turbulent); suyuqlikning fizikaviy xossalariga; issiqlik beruvchi sirtning shakliga. Yuqorida keltirigan nazariyalarga asoslanadigan bo'lsak α ning qiymati bir xil sharoitda ham turli qadamlarda o'zgarib boradi



4-rasm. Suv tezligini issiqlik berish koeffitsientiga ta'siri.

bu grafikda α – issiqlik berish koeffitsienti sifatida ko‘rsatilgan. Suv tezligi v ortgan sari α ham ortadi — bu konvektiv issiqlik almashinuvining kuchayishini bildiradi.

Quyosh suv kollektorining issiqlik samaradorligini aniqlashda ushbu formuladan uchun foydalanildi:

$$\eta = \eta_{tr} \left[\alpha_r \tau - \frac{K_d}{q_{ber}} (t_f - t_o) \right] \quad (7)$$

Konussimon suv isitgich kollektor uchun issiqlik almashinishni hisoblanganda

$$\alpha = \frac{G c_p (t'' - t')}{F \Delta t} \cdot \text{W/m}^2 \cdot ^\circ\text{C} \quad (8)$$

tenglikdan foydanildi.

$$\alpha = \frac{G c_p (t'' - t')}{F \Delta t} = \frac{120 \cdot 4.2 \cdot 12}{1 \cdot 24} = 25.2 \frac{\text{W}}{\text{m}^2} \cdot ^\circ\text{C};$$


$$Nu = \frac{\alpha d}{\lambda} = \frac{25.2 \cdot 2 \cdot 10^{-2}}{0.606 \cdot 10^{-2}} = 83.2$$

Oddiy absorberli kesikkonussimon quyosh suv isitgich kollektorida ma'lum sharoitda o'tkazilgan eksperimental natijalari asosida hisoblanganda issiqlik berish koeffitsienti $\alpha = 25.2 \text{ W/m}^2 \cdot ^\circ\text{C}$, Nusselt soni esa $Nu = 83.2$ ga teng boldi

$$\alpha = \frac{G c_p (t'' - t')}{F \Delta t} = \frac{120 \cdot 4.2 \cdot 22}{1 \cdot 29} = 38.2 \text{ W/m}^2 \cdot ^\circ\text{C}$$

$$Nu = \frac{\alpha d}{\lambda} = \frac{38.2 \cdot 2 \cdot 10^{-2}}{0.606 \cdot 10^{-2}} = 126.1$$

Kesikkonussimon tashqi mis quvurli deflektorli absorber quyosh suv isitgich kollektor uchun issiqlik almashinishni hisoblanganda issiqlik berish koeffitsienti $\alpha = 38.2 \text{ W/m}^2 \cdot ^\circ\text{C}$, Nusselt soni esa $Nu = 126.1$ ga teng boldi



5-rasm. Deflektorli va deflektorsiz konussimon sig‘imli quyosh suv isitgich parametrlarini solishtirma hisoblash natijalari.

1- deflektorsiz- $T_{oxir}=55^\circ\text{C}$; 2-mis spiral deflektorli- $T_{oxir}=68^\circ\text{C}$.

Dissertatsiyaning «**Konussimon quyosh suv isitgichlarda issiqlik almashinuvi va suyuqlik harakati jarayonlarini matematik modellash**» deb nomlangan uchinchi bobida asosiy fizik tenglamalar - Navier–Stokes

tenglamalari va issiqlik tarqalish tenglamalari Chekli Elementlar Usuli (FEM) asosida COMSOL Multiphysics muhitida diskretlashtirildi va yechildi. Quyida bu tenglamalarning matematik shakli, sonli sxemasi va COMSOLdagi iteratsion yechim konfiguratsiyalari keltirilgan.

Modellshtirishda qattiq jismlarda issiqlik tarqalish tenglamasidan:

$$\rho C_p \frac{\partial T}{\partial \tau} = \frac{\partial}{\partial x} \left(k \frac{\partial T}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(k \frac{\partial T}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(k \frac{\partial T}{\partial z} \right) + Q + Q_{ted}; \quad (9)$$

Suyuqlik yoki gazlarni xarakatini aniqlash uchun Navier-Stoks differensial tenglamasi qo'llanilgan:

$$\begin{cases} \frac{\partial \rho}{\partial \tau} + \frac{\partial \rho V_x}{\partial x} + \frac{\partial \rho V_y}{\partial y} + \frac{\partial \rho V_z}{\partial z} = 0. \\ \rho \frac{\partial V_x}{\partial \tau} + \rho V_x \frac{\partial V_x}{\partial x} + \rho V_y \frac{\partial V_x}{\partial y} + \rho V_z \frac{\partial V_x}{\partial z} + \frac{\partial p}{\partial x} = \\ = \frac{\partial}{\partial x} \left(\nu \rho \frac{\partial V_x}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(\nu \rho \frac{\partial V_x}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(\nu \rho \frac{\partial V_x}{\partial z} \right); \\ \rho \frac{\partial V_y}{\partial \tau} + \rho V_x \frac{\partial V_y}{\partial x} + \rho V_y \frac{\partial V_y}{\partial y} + \rho V_z \frac{\partial V_y}{\partial z} + \frac{\partial p}{\partial y} = \\ = \frac{\partial}{\partial x} \left(\nu \rho \frac{\partial V_y}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(\nu \rho \frac{\partial V_y}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(\nu \rho \frac{\partial V_y}{\partial z} \right); \\ \rho \frac{\partial V_z}{\partial \tau} + \rho V_x \frac{\partial V_z}{\partial x} + \rho V_y \frac{\partial V_z}{\partial y} + \rho V_z \frac{\partial V_z}{\partial z} + \frac{\partial p}{\partial z} = \\ = \frac{\partial}{\partial x} \left(\nu \rho \frac{\partial V_z}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(\nu \rho \frac{\partial V_z}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(\nu \rho \frac{\partial V_z}{\partial z} \right) - F_z; \end{cases} \quad (10)$$

bu yerda V_x, V_y, V_z – oqimmimg tezlik komponentalari, ρ – zichlik, F_z – og'irlik kuchi, ν – suyuqlikni molekulyar kinematik qovushqoqligi, p – bosim, Ushbu tenglama yordamida suyuqlik oqimini tezliklari va bosimi aniqlanadi.

Suyuqlikda issiqlik tarqalishini hisoblashda quyidagi tenglamadan:

$$\begin{cases} \rho C_p \frac{\partial T_2}{\partial \tau} + \rho C_p V_x \frac{\partial T_2}{\partial x} + \rho C_p V_y \frac{\partial T_2}{\partial y} + \rho C_p V_z \frac{\partial T_2}{\partial z} = \\ = \frac{\partial}{\partial x} \left(k \frac{\partial T_2}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(k \frac{\partial T_2}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(k \frac{\partial T_2}{\partial z} \right) + Q + Q_p + Q_{vd}; \end{cases} \quad (11)$$

Issiqlik tarqalish tenglamasi (konvektiv-diffuzion shaklda)

$$\rho C_p \left(\frac{\partial T}{\partial \tau} + \vec{U} \cdot \nabla T \right) = \nabla \cdot (k \nabla T) + Q_{um}. \quad (12)$$


Bu tenglama issiqlik sig'imi, oqim harakati, va diffuziya ta'sirida haroratning o'zgarishini ifodalaydi.

Diskretlashtirilgan ko'rinishi (2D, Markaziy farq + vaqt bo'yicha ayirish):


$$\begin{aligned} \rho C_p \left(\frac{T_{i,j,k}^{n+1} - T_{i,j,k}^n}{\Delta \tau} + V_{x,i,j,k} \cdot \frac{T_{i+1,j,k}^{n+1} - T_{i-1,j,k}^n}{2\Delta x} + V_{y,i,j,k} \cdot \frac{T_{i,j+1,k}^{n+1} - T_{i,j-1,k}^n}{2\Delta y} + V_{z,i,j,k} \cdot \frac{T_{i,j,k+1}^{n+1} - T_{i,j,k-1}^n}{2\Delta z} \right) = \\ = k \left(\frac{T_{i+1,j,k}^{n+1} - 2T_{i,j,k}^n + T_{i-1,j,k}^n}{\Delta x^2} + \frac{T_{i,j+1,k}^{n+1} - 2T_{i,j,k}^n + T_{i,j-1,k}^n}{\Delta y^2} + \frac{T_{i,j,k+1}^{n+1} - 2T_{i,j,k}^n + T_{i,j,k-1}^n}{\Delta z^2} \right) + Q_{um}. \end{aligned} \quad (13)$$

Tenglamadagi markaziy ayirmalar sxema asosida COMSOL tomonidan yechildi. Issiqlik almashinuv jarayonlarini matematik modelini sonli usulda olingan natijalarning umumiy tahlili. Olingan natilar jumladan issiqlik almashinuvi va


issiqlik tarqalishi shuningdek suv harakati tezliklari quyosh radiatsiyasi $250-910 \text{ W/m}^2$ bo'lgandagi turli sharoitlarda aniqlandi.




6-rasm. Konussimon quyosh suv isitgichining kichik to'rlarga ajratilganligi (32632 ta)



9-00




10-00




11-00

7-rasm. Konussimon suv isitgich kollektorini kunning turli vaqtlarida harorat konturlari.

Quyosh energiyasidan foydalangan holda suv isitish tizimlarining samaradorligi suv oqimining tezligiga, ishchi kamerasining konstruksiyasiga va issiqlik almashinish jarayonlariga bog'liq. Bu yerda oddiy rezervuarli quyosh suv isitgichining ishchi kamerasida suvning tezligi $0,5-1,5 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}$ oralig'ida o'zgarib, har xil vaqtlarda olingan natijalar quyida keltirilgan.



c)



e)


8-rasm. Konussimon quyosh suv isitgichining ishchi kamerasida suvning tezligi $0,5-1,5 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}$ oralig'ida turli xil vaqtlarda o'zgarishi.

Suvning harakat tezligi $0,5 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}$ bo'lganda, issiqlik almashinuvi nisbatan sekin amalga oshadi, chunki konvektiv issiqlik o'tkazuvchanligi past ko'rsatgichga ega bo'ladi. Bunday tezlikda suvning yuqori qatlamlari ko'proq issiqlik almashinuv jarayonini kuzatish mumkin, lekin pastki qatlamlarda issiqlik bir tekis tarqalmasligi kuzatildi.


Tezlik $1,0-1,5 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}$ oralig'ida bo'lganda, konvektiv issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti sezilarli darajada oshadi. Suvning ichki aylanma harakati issiqlikni bir xil taqsimlaydi va rezervuarning samaradorligi oshadi.

Quvurlar tizimi, suv oqimini ta'minlash bilan birga issiqlik uzatish yuzasini kengaytiradi va haroratning bir xil taqsimlanishini ta'minlaydi. Tizimda suv


oqimining tezligi yuqoriroq bo'lganida ($1,0-1,5 \cdot 10^{-2}$ m/s oralig'ida), konvektiv issiqlik uzatilish koeffitsienti sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Bu suvning ichki aylanma harakatini yaxshilab, issiqlikni bir xil tarqatishga yordam berdi. Natijalardan kelib chiqib, ishchi kamerasining konstruksiyasini takomillashtirish va deflektorlarning optimal joylashuvi tizimning umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.





9-rasm. Konussimon, ichki va tashqi deflektor quvurli quyosh suv isitgichida -tezlik vektorlari turli vaqtlarda.



10-rasm. Konussimon, ichki va tashqi deflektor quvurli quyosh suv isitgichida suvning tezligini turli vaqtlarda o'zgarishi.



11-rasm. Konussimon, ichki va tashqi deflektor quvurli quyosh suv isitgichida suvning haroratini turli vaqtlarda o'zgarishi




12-rasm. Konussimon quyosh suv istgichlarda issiqlik tarqalishi haroratga bog'liqligi.

1-oddiy turdagi sigimli quyosh suv isitgichi, 2- deflektorli sigimli quyosh suv isitgichi, 3- ichki konussimon va tashqi quvurli deflektorli sigimli quyosh suv isitgich kollektori.

Tadqiqotda o'rganilgan sigimli quyosh suv isitgichlari uch xil konstruksiyaviy yechimda taqdim etilgan: 1) oddiy konussimon sigimli quyosh suv isitgichi, 2) ichki deflektorli konussimon sigimli quyosh suv isitgichi va 3) Konussimon, ichki va tashqi deflektor quvurli quyosh suv isitgichi. Ushbu tizimlar orasida eng yuqori issiqlik samaradorligiga ega bo'lgan qurilma — bu ichki va tashqi deflektor quvurli quyosh suv isitgichi hisoblanadi. Sonli modellashtirish natijalariga

ko‘ra, aynan shu qurilma 15–20% yuqori issiqlik samaradorligini ko‘rsatadi va suvni tezroq hamda bir xilda isitish imkonini beradi.




13-rasm. Matematik va imitatsion modellarning natijalarini o‘zaro taqqoslash


a), Temperatura b) Tezlik – 1– ishlab chiqilgan matematik model, 2– tajriba asosida olingan natijalar.

Matematik modelni sonli yechish orqali olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida, “COMSOL MULTIPHYSICS 6.1” dasturiy ta’minotidan foydalangan holda, quyosh suv isitgich kollektorining suv quvurlarida issiqlikning bo‘ylama tarqalishi hisoblab chiqildi. Olingan natijalar o‘zaro taqqoslandi va dissertatsiya ishida keltirilgan matematik modelni ishonchliligi (adekvatliligi) isbotlandi.

“Kesik konussimon quyosh suv isitgich kollektorining eksperimental tadqiqotlar asosida issiqlik samaradorligini tadqiq qilish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida konussimon sig‘imli quyosh suv isituvchining real tabiiy sharoitdagi to‘liq miqyosli sinovlardan o‘tkazish tartibi va sinov jarayonining barcha parametrlarini o‘lchash, natijalarni uzliksiz ravishda axborot bazasiga registratsiya qilish imkonini beruvchi axborot – o‘lchash tizimi, sinov natijalari va texnik-iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlari keltirilgan.



a)



b)


14- rasm. Kesik konussimon quyosh suv isitgichining tajriba namunasi.

a)- ichki yassi deflektorli; b)- ichki yassi va tashqi mis quvurli deflektorli

Ishlab chiqilgan kesik konussimon quyosh suv isitgichining sinov dasturi va

uslubu va uning samaradorligini tadqiq qilish G.M. Krjijanovski nomidagi ENIN Geliotexnika laboratoriyasida ishlab chiqilgan quyoshli suv isitgichlarini sinash dasturi va uslubiyatiga asosan, shuningdek amaldagi GOSTlarga muvofiq qurilgan eksperimental stenddan foydalangan holda o'tkazildi: GOST 28310-89.

Sinovlar uchun o'lchov stendi. Sinovlarda yuzaning, suvning, atrof-muhitning haroratlari, quvurli deflektor orqali oqayotgan suv miqdori va kollektor yuzasiga tushayotgan quyosh nurlanishi parametrlarini o'lchash uchun DataLogger ESP-WROVWER – 32 ko'p kanalli o'lchov stendi ishlab chiqilgan (4.5-rasm).



15- rasm. Suv isitgich va o'lchov ahborot tizimi ning printsipial sxemasi.

O'lchov ahborot tizimi – Data Logger ESP-WROVWER – 32 mikrokontrolleri asosida yig'ilgan. Bu yerda yoruglik va harurat datchiklari suv isitgichning yuzasiga joylashtirilgan. Sxemada harorat o'lchash DS 18B20, quyosh radiatshiyasi esa BH1750 Ligt Metr – datchigi orqli bajarildi. ESP-WROVWER – 32 mikrokontrollerida ilovada keltirilgan Client dasturi yordamida barcha o'lchsh aballari bajarilib, qiymatlar axborot bazasiga uzliksiz ravishda belgilangan vaqt intervalida yozib boriladi. Davr uchun o'lchangan qiymatlar quyidagi n-tablitsada keltirilgan.

1-jadval.

Kesik konussimon, deflektorli quyosh suv isitgich tajriba natijalari.


№ Qizitilgasu vning i-chi porsiyasita rtib raqami	Qizitilgan suvning i- chi porsiyasi o'rtacha harorati, ti (°C)	Qizitilga n suvning i-chi porsiyasi hajmi Vi (litr)	37°C ga keltirilgan shartli hajmi Vshartli (litr)	Quyosh nurlanishi va atrof-muhit parametrlari			
				Vaqt (soat)	Sirtga perpendikulyar tushgan umumiy nurlanish (W/m ²)	Shamol tezligi V (m/s)	Atrof-muhit harorati to (°C)
1	71	10	28,9	9 ³⁰	740	0,8	30
2	71	10	28,9				
3	69	10	27,8				
4	65	10	25,6	12 ³⁰	1050	1,2	35
5	62	10	23,9				
6	58	10	21,7				
7	54	10	19,6	15 ³⁰	950	2,0	37
8	51	10	18,6				
9	47	10	15,5				
10	44	10	14				
11	41	10	12,3	18 ³⁰	710	2,0	32
U _{fak} = 110 l, U _{shartli} = 268 l.							

Ushbu malumotlarni <http://pribori.uz/Nilufar> havolasi bilan ko‘rish mumkin.

2023–2025-yillarning aprel–noyabr oylarida Farg‘ona davlat texnika universiteti geliopoligonida konussimon turdagi ro‘zg‘orbop quyosh suv isitgichining ekspluatatsion sharoitlardagi tajriba-sinovlari va energetik samaradorlik tadqiqotlari amalga oshirildi. Sinov natijalari asosida qurilmaning kunlik unumdorligi, chiqish harorati va foydali ish koeffitsienti aniqlandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kollektor tarkibiga o‘rnatilgan mis spiral deflektor issiqlik almashinuvini jadallashtirib, oqimda turbulentlik hosil qiladi hamda haroratning bir tekis taqsimlanishini ta‘minlaydi. Natijada kollektorning chiqish harorati oddiy konstruksiyalarga nisbatan o‘rtacha 10–12°C ga yuqori bo‘ldi. Quyosh nurlanishi ortishi bilan qurilmaning foydali ish koeffitsienti ham oshib, uning qiymati: $\eta=0.65\div0.70$ diapazonda ekanligi eksperimental jihatdan tasdiqlandi.

Texnik-iqtisodiy tahlillar asosida qurilmaning o‘zini qoplash muddati asosan yillik ishchi soatlar soni va suvni qizdirish haroratiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tabiiy gazni almashtirish holatida: $\tau_{\max}=3000$ soat bo‘lganda, $T=37\text{ }^{\circ}\text{C}$ uchun 1,12 yilni, $T=50\text{--}60\text{ }^{\circ}\text{C}$ oralig‘ida esa 1,66 yilni tashkil etdi. Elektr energiyasini almashtirishda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 0,5 va 1,6 yilni tashkil qilishi aniqlandi. Shuningdek, iqtisodiy taqqoslash natijalari mahalliy konussimon quyosh suv isitgichining import analoglariga nisbatan yuqori raqobatbardosh ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, xorijiy analoglar narxi €350–400 atrofida bo‘lsa, ishlab chiqilgan mahalliy qurilmaning tannarxi taxminan 1 mln so‘m (80 AQSh dollari) ni tashkil etib, uning 4–5 barobar arzonligi asoslandi.

Namunaviy suv isitgich “TDTU Qo‘qon filiali”da jamoat binosiga o‘rnatildi. Natijada suv harorati 68 °C gacha yetkazilib, yillik energiya sarfi 27 % gacha tejaldi.



16-rasm. TDTU QF jamoat binosiga o‘rnatilgan kesikkonussimon quvur absorberli quyosh suv isitgichining umumiy (a) va sxematik(b) ko‘rinishi.

XULOSALAR

1. Kesik konussimon absorberli sig'imli quyosh suv isitgich qurilmasining konstruksiyasi ishlab chiqildi va uning maqbul geometrik o'lchamlari asoslab berildi (asos diametri 1,0 m, balandligi $\approx 0,345$ m, suv sig'imi 110 l, absorber ishchi yuzasi $1,0 \text{ m}^2$). Natijada, taklif etilgan yechim an'anaviy suv isitgichlarga nisbatan metall sarfini taxminan 4–5 baravar kamaytiradi: qurilma ruxlangan po'lat listdan tayyorlanganda massasi qariyb 6 kgni, alyuminiy list qo'llanganda esa 2–3 kgni tashkil etadi.

2. Issiqlik almashinuvi jarayonlarini jadallashtirish uchun deflektorlar qo'llanildi. Ichki va tashqi deflektorlar yordamida konussimon bak-akkumulyatorli kollektor ichidagi issiqlik almashinuv jarayonlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Natijada suvning maksimal harorati taxminan $10\text{--}12^\circ\text{C}$ ga oshdi va qurilmaning foydali ish ko'effitsienti (issiqlik samaradorligi) 50 % dan 65–70 % gacha ko'tarilishi ta'minlandi.

3. COMSOL Multiphysics dasturida olingan natijalar optimal rejimlarni ko'rsatdi. Raqamli modellash natijalari deflektorli konussimon kollektor ichida issiqlik almashinuvining samarali ekanligini tasdiqladi hamda optimal ish rejimi parametrlarini aniqladi. Jumladan, suv oqimi tezligi $1,0\text{--}1,5 \text{ m/s}$ bo'lganda, konvektiv issiqlik uzatish ko'effitsienti $\alpha = 38 \text{ W}/(\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{C})$ va Nusselt soni $Nu = 126$ ga yetishi, buning natijasida tizim samaradorligi qo'shimcha 12–15 % ga oshishi nazariy jihatdan isbotlandi.

4. Tabiiy sharoitlarda o'tkazilgan eksperimental sinovlar mazkur qurilmaning yuqori samaradorligini tasdiqladi: bir sutkada 110 litr suvni $68\text{--}71^\circ\text{C}$ gacha isitish imkoniyati qayd etildi. Natijada, bu ko'rsatkich $+37^\circ\text{C}$ ga keltirilgan shartli issiq suv hajmi bo'yicha 270 litrga mos kelishi aniqlandi hamda tajriba natijalariga ko'ra qurilmaning foydali ish ko'effitsienti 65–70 % oralig'ida ekanligi belgilandi.

5. Texnik-iqtisodiy baholash natijalari qurilmaning arzonligi va tejamkorligini tasdiqladi: o'zini o'zi qoplash muddati gaz energiyasi o'rnida qo'llanganda 1,1–1,6 yilni, elektr energiyasi o'rnida qo'llanganda esa 0,5–1,6 yilni tashkil etdi. Natijada, ishlab chiqilgan mahalliy model xorijiy analoglariga nisbatan 4–5 baravar arzon ekani aniqlandi hamda mazkur qurilmadan foydalanish an'anaviy yoqilg'i va elektr energiyasi sarfini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berishi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.T.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЭСАНАЛИЕВА НИЛУФАР РАХМОНЖОН КИЗИ

**РАЗРАБОТКА СЕЗОННЫХ СОЛНЕЧНЫХ ВОДОНАГРЕВАТЕЛЕЙ С
ПОВЕРХНОСТЬЮ УСЕЧЁННОГО КОНУСА**

05.05.06 – Энергоустановки на основе возобновляемых видов энергии

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ФЕРГАНА – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2022.1.PhD/T603.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном техническом университете.
Аннотация диссертации размещена на трех языках (узбекском, русском, английском (краткое изложение)) на сайте Научного совета (www.fetri.uz) и на информационно-образовательном портале «Зиёнет» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Эргашев Сироджиддин Файзович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мамадалиева Лола Камилджановна
доктор технических наук, профессор

Косимов Фахриддин Шадмонкулович
доктор философии по техническим наукам, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита состоится «22» августа 2026 года в 9 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.T.19.01 при Ферганском государственном техническом университете. Адрес: 150107, г. Фергана, ул. Ферганская, дом 86. Тел: (+99873) 241-12-06, факс (+99873) 241-12-06, e-mail: ilmiy-kengash@fertri.uz, малый зал заседания.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного технического университета (зарегистрирована за № 396). Адрес: 150107, г. Фергана, ул. Ферганская, дом 86. Тел: (+99873) 241-12-06.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2026 года.
(протокол рассылки № 3 от «___» _____ 2026 г.)



Председатель Научного совета по присуждению научных степеней, доктор технических наук, профессор
У.Р. Саломов

Научный секретарь научного совета по присуждению научных степеней, кандидат наук (PhD), доцент
А.А. Кучкаров

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению научных степеней, доктор технических наук **Н.Р. Аветисова**

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире особое внимание уделяется вопросам расширения масштабов использования возобновляемых источников энергии, экономии углеводородных топливно-энергетических ресурсов, а также оценке резервов энергосбережения и их рациональному использованию на основе определения энергетической эффективности оборудования¹. В настоящее время в развитых странах «производство электроэнергии из возобновляемых источников энергии растет в среднем на 7% ежегодно, при этом доля солнечной энергетики интенсивно увеличивается². Прогнозируется, что к 2030 году в рамках сценария «Net Zero Emissions» основная часть производства энергии будет приходиться на долю возобновляемых источников энергии»³. В этом направлении особое внимание уделяется разработке оптимальных конструкций ёмкостных солнечных водонагревателей в форме усечённого конуса, исследованию процессов теплообмена внутри бака в условиях естественной конвекции, определению температурной стратификации, оценке эффективности сбора энергии, а также повышению энергоэффективности на основе математического моделирования.

В мире ведутся научные исследования, направленные на повышение энергоэффективности систем солнечного горячего водоснабжения, в частности, на оптимизацию рабочих режимов ёмкостных солнечных водонагревателей в форме усечённого конуса, используемых в качестве тепловых аккумуляторов, определение процессов теплообмена внутри бака в условиях естественной и вынужденной конвекции, а также на совершенствование их конструкции. В данном направлении приоритетными считаются исследования по повышению энергетической эффективности ёмкостных солнечных водонагревателей в форме усечённого конуса путём улучшения температурной стратификации внутри ёмкости, снижения тепловых потерь, стабилизации распределения энергии по объёму воды и эффективного управления внутренними потоками, а также по оптимизации их основных геометрических и теплогидравлических параметров. Наряду с этим, актуальными задачами являются разработка модели естественного циркуляционного движения воды внутри бака, изучение закономерностей распределения температурного поля по высоте, совершенствование методики расчёта эффективности аккумулирования тепла, а также определение энергетических показателей процессов сохранения и передачи тепловой энергии.

В нашей республике реализуются широкомасштабные меры по проведению исследований в области создания новых технологий, способствующих широкому использованию и повышению эффективности возобновляемых источников энергии, а также по их практическому

¹ REN21. Renewables 2024 Global Status Report. Paris, France, 2024.

² BP Statistical Review of World Energy 2024. London, 2024.

³ International Energy Agency (IEA). Net Zero Roadmap: A Global Pathway to Keep the 1.5 °C Goal in Reach. Paris, 2023

внедрению. В рамках реализации цели «Переход к «зелёной» экономике, кардинальное повышение уровня использования возобновляемых источников энергии как её основы», определённой в Стратегии «Узбекистан – 2030» по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в 2023–2030 годах, установлены задачи по «...доведению мощности возобновляемых источников энергии до 25 ГВт и их доли в общем объёме потребления первоначально до 40%; сокращению выбросов парниковых газов на единицу валового внутреннего продукта на 30% по сравнению с уровнем 2010 года», а также в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы ⁴, в частности, по «бесперебойному обеспечению экономики электроэнергией и активному внедрению технологий «зелёной» экономики во все сферы, повышению энергоэффективности экономики на 20 процентов»⁵. В реализации данных задач важное значение имеют создание энергоэффективных систем теплоснабжения на основе возобновляемых источников энергии и модернизация существующих установок, в том числе анализ процессов теплообмена в ёмкостных солнечных водонагревателях в форме усечённого конуса в условиях естественной конвекции, определение температурной стратификации и эффективности аккумулирования энергии, а также разработка высокоэффективных систем горячего водоснабжения на основе их математического моделирования.

